

**RAUF PARFI EPIK IJODIDA QARLUQ  
LAHJASIGA MANSUB LEKSEMA LARNING  
FONETIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI  
TAHLILI**

*Sotimboyeva Dilnura Axmedjon qizi, Chirchik davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**АНАЛИЗ ФОНЕТИЧЕСКИХ И  
МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК  
ЛЕКСЕМ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ К  
КАРЛУКСКОМУ ДИАЛЕКТУ В ЭПИЧЕСКОМ  
ТВОРЧЕСТВЕ РАУФА ПАРФИ**

*Сотимбоева Дилнурा Ахмеджон кызы, студент 2-курса гуманитарного факультета узбекского языка и литературы Чирчикского государственного педагогического университета*

**ANALYSIS OF PHONETIC AND  
MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF  
LAXEMAS BELONGING TO GARLUQ DIALECT IN  
THE EPIC CREATION OF RAUF PARFI**

*Sotimboyeva Dilnura Ahmedjon qizi, Chirchik State Pedagogical University Faculty of Humanities 2<sup>nd</sup> stage student of Uzbek language and literature*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek sheva, lahja, dialektlari va ularga xos sifatlar, shevalarning fonetik, morfologik jihatlari haqida fikr yuritiladi. O'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan adiblarimizdan biri, O'zbekiston xalq shoiri, Tursunali Parpiyevning epik asarlarida qarluq lahjasiga oid so'zlar fonetik va morfologik jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sheva, lahja, dialect, "ashilla", "qag'da", progressiv, singarmonizm, lisoniy farq.

**Abstract:** In this article, Uzbek dialects, dialects, dialects and their characteristic qualities, phonetic and morphological aspects of dialects are discussed. In the epic works of Tursunali Parpiyev, one of our writers who made a significant contribution to Uzbek literature, the Uzbek people's poet, the words of the Qarluq dialect are analyzed phonetically and morphologically.

**Key words:** dialect, dialect, dialect, "ashilla", "kagda", progressive, synharmonism, linguistic difference.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются узбекские диалекты и их характерные качества, фонетические и морфологические аспекты диалектов. В эпических произведениях Турсунали Парпиева, узбекского народного поэта, внесшего значительный вклад в узбекскую литературу, анализируются слова карлукского диалекта фонетически и морфологически.

**Ключевые слова:** диалект, говор, "ашилла", "кагда", прогрессив, сингармонизм, языковое различие.



[https://orcid.org/  
0009-0005-7804-0146](https://orcid.org/0009-0005-7804-0146)

e-mail:  
[dilnurasotimboyeva@gmail.com](mailto:dilnurasotimboyeva@gmail.com)

**KIRISH.** Bilamizki, o‘zbek tili turkiy tillar orasida shevalari ko‘p ekanligi jihatidan ham farqlanadi. Bir necha asrlar mobaynida o‘zbek shevalari shiddatli tarzda rivojlandi. Rivojlangan taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunishda, dastavval oldimizga sheva, dialekt, lahja atamalari chiqadi.

“Sheva” leksemasi fors tilida *tarz*, *usul* ma’nolarini anglatib, tilning fonetik, grammatik va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi – sezilarli lisoniy farqlari bo‘lmanan bir qancha aholi maskanida yashovchilarining so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llaniladi. Shevalar o‘zlarining joylashuvi, geografik o‘rnii bilan bir-biridan farqlanadi. Shevalar tilshunoslikning dialektologiya (shevashunoslik) bo‘limida o‘rganiladi.

“Dialekt” so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, yunon tilida *qabila tili* degan leksemani anglatadi. “Dialekt” atamasi shevaga nisbatan keng ma’noda qo‘llanadi. Dialekt til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalar yig‘indisini tashkil qiladi.

“Lahja” arabcha so‘z bo‘lib, bu atama ham *ravish*, *tarz*, *yo’sin*, *sheva* ma’nolarini anglatadi. Bir qancha sheva va dialektlarning eng yirik to‘plamini tashkil qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYASI.** Tilimiz taraqqiyoti davomida uchta lahjaning birligidan tuzilgan bo‘lib, bu maqolada shu lahjalardan biri qarluq lahjasidagi leksemalarning fonetik va morfologik xususiyatlari o‘rganiladi. Qarluq lahjasi vakillari shahar va shahar tipidagi shevalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu lahjaga kirgan shevalarning aksariyati turkiy tillarga xos bo‘lgan singarmonizm qonuniyatini yo‘qotgan bo‘lib, ammo shimoliy o‘zbek shevalarida bu qonuniyat saqlanib qolgan. Bundan ko‘rinib turubdiki, bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra ikki guruhgaga ajralishidir. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizmga amal qilmaydi, biroq, shimoliy o‘zbek shevalarida esa, singarmonizm qonuniyati saqlanadi. Shuning uchun ham unlilar sonida ham farq bor. Shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar olti, yettita. Shimoliy o‘zbek

shevalarida unlilar miqdori ko‘proq, ya’ni to‘qqiztadir.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Rauf Parfi ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hikoyalarida sheva ruhi, sheva koloriti sezilib turadi. Yozuvchi shoir Toshkent viloyatinning Yangiyo‘l tumanida ulg‘ayganligi sababli, ushbu yerning dialekti hikoyalariga singdirilgan. Buni tahlil qiladigan bo‘lsak, Yangiyo‘l Toshkent guruhি shevalariga mansubdir.

„Sen, Hoshim, bo‘lmaq‘ur chiqding. Kallai sahardan to yarim kechgacha ashilla aytganing-aytgan, u yoqqa o‘tganingda ham g‘ingshiysan, bu yoqqa o‘tganingda ham”[1]. Bu parcha “Davlat bobo” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, bu yerda “ashilla” leksemasiga e’tibor qaratsak, bunda old qator unlisi “u” o‘rnida orqa qator unli “I” ishlatalilgan. Ya’ni, qarluq shevasida so‘zning har qanday bo‘g‘inida old qator va orqa qator unlilar qo‘llana oladi. “Ashilla” leksemasida ham birinchi va oxirgi bo‘g‘inida orqa qator unli kelgan.

“Masharif, choydan ob keng... Bugun qatta ishlading?

- Xirmonda, buva” [2].

O‘rin-payt kelishigida to‘liq progressiv assimilyatsiya yuz beradi. “Qayerda” so‘zi shu qonuniyatga asoslangan holda “qatta” deb ifodalangan. Boshqa bir o‘rinda “Tojiba, keliningiz qaqqa ketdi?” jumlasida “qayerga” leksemasi qisqartirilib, jo‘nalish kelishigi —qa shaklida qo‘llangan. “Qayerda” olmoshi ham Rauf Parfi hikoyalarida turli shaklda berilgan. Masalan, “-Qag‘da. Burungi ochofat mushuklar qayda deysiz”[3]. Bu gapda “qag‘da” va “qayda” shaklida ishlatalilgan. “Davlat bobo” hikoyasida “olib keeling” fe‘li “ob keng” shaklida qo‘llangan bo‘lsa, “Yolg‘iz” hikoyasida “opkeling” deyilgan. Demak, Rauf Parfi so‘zni turli o‘rnlarda har xil shakllarda qo‘llay olgan.

Ijodkor tili shevasining morfologik xususiyatlarini ham tahlil qiladigan bo‘lsak, fe‘llar shakllarida o‘zgarish sezamiz. O‘tgan zamon fe‘li ko‘p o‘rinlarda -vdi, -uvdi shaklida kelgan. “Aytganday, seni ja’mo izlab yuruvdi – Saidqosimov”. “Keling. Mana u. Hali axtaryatuvdiz,- dedi buva meni qo‘li bilan ko‘rsatib, keyin qo‘li bilan qo‘sib qo‘ydi” [4].

Toshkent dialekti so‘zlarida singarmonizm qonuniyati kuzatilmasligini, hattoki adabiy tilda singarmonizmga bo‘ysungan so‘zlarni o‘zgartirib qo‘llashlarini ushbu parchadagi leksemadan ko‘rsak bo‘ladi. “Hoshim – kamsuqum yigit. Lekin bu gap uning hamiyatiga tegdimi, zo‘rg‘a o‘stirgan mo‘ylabining chap tomonini jahl bilan yulqib qo‘ydi”[5]. O‘zbek adabiy tilida yuqori labning ustini qoplagan mo‘ylar izohidagi so‘z mo‘ylov deb aytiladi va yoziladi. Mo‘ylov so‘zidagi ikkala unli tovush ham til orqa, lablangan hisoblanadi. Biroq, parchada ko‘rib turganimizdek, Toshkent shevasida bu qonuniyat buzilgan. Quyi keng, til orqa, lablangan “o” unlisi, quyi keng, til oldi “a” unlisiga almashgan. So‘z oxiridagi “v” tovushi ham “b” tovushiga o‘zgargan.

Toshkent dialektida ba’zi so‘zlar bitta yoki ikkita tovush bilan farqlansa, yana shunday leksemalar butun o‘zak qismi bilan o‘zgargan. Bu so‘zlarni Rauf Parfi ijodida ham ilg‘ash mumkin. Masalan, “Dononi urganiga ja-a xafa bo‘lgan ekan boyaqish bobo. Xayr... emasam, turay men... Choy uchun rahmat [6]. Bu parchada adabiy tildan yiroq bo‘lgan so‘z “ja-a”dir. Bu so‘zni Toshkent guruhida gaplashuvchi aholi ma’nosini juda yaxshi anglab yetgan. Adabiy tilda “juda” deb foydalilaniladi. O‘g‘uz lahjasida esa o‘ziga xos tarzda “dim” deya ishlatiladi. Ko‘pgina so‘zlarni tahlil qilganimizda shuning guvohi bo‘lishimiz mumkinki, Toshkent shevasi so‘zlarni qisqartirib qo‘llar ekan.

Rauf Parfi ijodi orqali Toshkent dialekti leksemalarining fonetik jihatlarini ham tahlil qilar ekanmiz, ba’zi so‘zlarda, “b” tovushi o‘rnida “v” ishlatilgan, yana ba’zi yerlarda shuning ayni teskari holati, ya’ni “v” tovushi o‘rnida “b”dan qo‘llanilgan, yoki so‘z o‘rtasida “v” orttirilgan. Misol keltiradigan bo‘lsak, “mo‘ylab” so‘zini yuqorida ko‘rib o‘tdik. “-Bog‘von, bu yoqqa!”[7] Bu o‘rindagi “bog‘von” so‘ziga e’tibor qaratib, undagi “b” tovushi “v” ga o‘zgarib, shunday shaklga kelib qolgan. Aslida esa, adabiy tilda “bog‘bon” deb foydalilaniladi. “-Choyga

to‘ladingmi, Hoshim? Menam boray, televizorda yaxshi tomosha bor deyishadi. To‘xtasin, sen ertaga nomozgarda Karim o‘risning uyiga kirib, suvratimni ol, ertalab tushib qo‘yaman...”[8] Gapda “suvratim” so‘ziga diqqat qaratsak, bu leksemani adabiy tilda “surat” deymiz. Ammo bu o‘rinda, ya’ni Toshkent shevasida “suvrat” deya bo‘g‘in orasiga “v” tovushi orttirilgan holatda ifodalangan.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Rauf Parfi ijodi to‘laligicha qarluq lajhasi leksemalari bilan sug‘orilgan. Hikoyalarning tili sodda, tushunilishi osonligi bilan alohida ajralib turadi. Rauf Parfi ijodini faqatgina O‘zbekiston hududida mutolaa qilib qolmasdan, balkim qo‘shni davlatlarda ham sevib o‘qiladi. Bunga sabab, qarluq shevasi Qozog‘iston hududidagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Iqon, Mankent, Qirg‘izistonda O‘sh, Jalolobod, O‘zgan hududlarida ham keng tarqalgan. Ularning tilida ham Yangiyo‘l shevasidagi fonetik va morfologik xususiyatlarni uchratamiz. Hattoki, bu lajhaga oid sheva vakillarini Afg‘onistonda ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu shevalar o‘rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham yaqqol bog‘liq tarzda namoyon bo‘ladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Ashirboyev S. “O‘zbek dialektologiyasi” “Navroz” nashriyoti, Toshkent-2016.
2. Rajabov N. “O‘zbek shevashunosligi” Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Rauf Parfi “Hukmnoma” Toshkent, Akademik nashr, 2023. “Davlat bobo”, “Yolg‘iz” hikoyalari [1,2,3,4,5,6,7,8].
4. Reshetov V, Abdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. “O‘qituvchi” nashri, Toshkent, 1978.
5. To‘ychiboyev B, Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.